



THE ART OF BAKHSHI PERFORMANCE AND THE EPIC “ALPOMISH” IN THE HISTORICAL AND CULTURAL HERITAGE OF THE SHEROBAD OASIS, SURKHANDARYA

Sherkhon Khamzayevich Kichkilov

Doctor of Philosophy (PhD) in History

Termez State University of Engineering and Agrotechnologies

Science ID: FSD-1125-0033

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: oral folklore, Alpomish, Surkhan oasis, Boysun, Sherabad, folklore, bakhshi art, epic tradition, historical memory, intangible cultural heritage.

Received: 18.07.26

Accepted: 19.07.26

Published: 20.07.26

Abstract: This article provides a historical and ethnographic analysis of epic storytelling and bakhshi traditions as an important part of Uzbek oral folklore. Particular attention is paid to the connections of the Alpomish epic with the folklore environment of the Surkhan oasis, especially Boysun and Sherabad, and to the role of local bakhshi traditions in preserving the historical memory of the people. The article also highlights the importance of epic traditions in ensuring cultural continuity between generations and preserving intangible cultural heritage.

SURXON - SHEROBOD VOHASI TARIXIY-MADANIY MEROSIDA BAXSHICHILIK SAN'ATI VA “ALPOMISH” DOSTONI

Sherxon Xamzayevich Kichkilov

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Ilmiy identifikatsiya raqami: FSD-1125-0033

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, “Alpomish”, Surxon vohasi, Boysun, Sherobod, folklor, baxshichilik, dostonchilik, tarixiy xotira, nomoddiy madaniy meros.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining muhim tarkibiy qismi bo'lgan dostonchilik va baxshichilik an'analari tarixiy-etnografik jihatdan tahlil qilinadi. “Alpomish” dostonining Surxon

vohasi, xususan, Boysun–Sherobod folklor muhiti bilan bogʻliq jihatlari, mahalliy baxshichilik anʼanalari va ularning xalq tarixiy xotirasini saqlashdagi oʻrni yoritiladi. Shuningdek, dostonchilik merosining avlodlararo davomiyligi va nomoddiy madaniy meros sifatidagi ahamiyati ochib beriladi.

ИСКУССТВО БАХШИ И ЭПОС «АЛПОМИШ» В ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНОМ НАСЛЕДИИ ШЕРАБАДСКОГО ОАЗИСА СУРХАНДАРЬИ

Шерхон Хамзаевич Кичкилов

Доктор философии (PhD) по историческим наукам

Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий

Научный идентификационный номер: FSD-1125-0033

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: устное народное творчество, «Алпомиш», Сурханский оазис, Байсун, Шерабад, фольклор, искусство бахши, эпическое сказительство, историческая память, нематериальное культурное наследие.

Аннотация: В статье с историко-этнографической точки зрения анализируются традиции эпического сказительства и искусства бахши как важной части узбекского устного народного творчества. Особое внимание уделяется связям эпоса «Алпомиш» с фольклорной средой Сурханского оазиса, в частности Байсуна и Шерабада, а также роли местных традиций бахши в сохранении исторической памяти народа. Раскрывается значение эпического наследия в обеспечении преемственности поколений и сохранении нематериального культурного наследия.

Kirish. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi xalqning koʻp asrlik tarixiy tajribasi, maʼnaviy dunyoqarashi va axloqiy meʼyorlarini avloddan avlodga yetkazib kelayotgan muhim nomoddiy madaniy meros hisoblanadi. Folklor namunalari vositasida jamiyatda insonparvarlik, Vatanga sadoqat, mehnatsevarlik, oilaga hurmat, mardlik va jasorat, vafo hamda sadoqat singari fazilatlar targʻib etilgan. Ayniqsa, dostonlar, termalar, xalq qoʻshiqlari, maqol va rivoyatlarda mujassamlashgan axloqiy qarashlar yosh avlodning maʼnaviy tarbiyasida muhim oʻrin tutadi. Shu jihatdan xalq ogʻzaki ijodi faqat oʻtmishdan saqlanib qolgan badiiy meros emas, balki jamiyatning maʼnaviy qadriyatlari va tarixiy xotirasini davom ettiruvchi ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ham ahamiyatlidir.

Yangi O'zbekiston sharoitida milliy madaniy merosni asrash, o'rganish va kelgusi avlodlarga yetkazishga qaratilgan islohotlar folklor an'alarini yangicha ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etish zaruratini kuchaytirmoqda. Ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan odob-axloq, kamtarlik, saxovatpeshalik, oilaviy hamjihatlik, halollik, mehr-muruvvat, qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari va kattalarga hurmat kabi qadriyatlar xalq og'zaki ijodining turli janrlarida o'zining badiiy ifodasini topgan. Mazkur ma'naviy me'yorlar asrlar davomida urf-odat, marosim va an'analar bilan uyg'unlashib, jamoaning ijtimoiy birdamligini ta'minlovchi muhim omillardan biriga aylangan. Binobarin, folklor merosini saqlash faqat qadimgi matnlarni qayta nashr etish bilan cheklanmasdan, ularning tarixiy-etnografik mazmunini ochib berish, mahalliy variantlarini qayd etish va zamonaviy madaniy jarayonlardagi davomiyligini ilmiy jihatdan tadqiq qilishni ham talab etadi[1:91].

Adabiyotlar tahlili va metod. O'zbek folklorining boy epik merosi, xususan, "Alpomish" kabi xalq dostonlari ana shu ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning mujassam ifodasi sifatida alohida o'rin egallaydi. Dostonlarda ezgulik va adolatni himoya qilish, yurt va el manfaatiga sadoqat, oilaning daxlsizligi, do'stlikka vafo, or-nomusni asrash hamda ajdodlar xotirasiga hurmat singari tushunchalar qahramonlarning xatti-harakatlari orqali badiiy talqin etiladi. Ayniqsa, Boysun–Sherobod folklor muhitida avloddan avlodga yetkazilgan dostonchilik va baxshichilik an'analari ushbu qadriyatlarning xalq tarixiy xotirasida barqaror saqlanishiga xizmat qilgan. Shu ma'noda xalq og'zaki ijodini o'rganish nafaqat folklorning badiiy xususiyatlarini aniqlash, balki Surxon vohasi aholisining an'anaviy dunyoqarashi, axloqiy mezonlari, oilaviy va jamoaviy munosabatlari hamda vatanparvarlik tasavvurlarining tarixiy ildizlarini ochib berish imkonini beradi. Folklor merosining bugungi kundagi ahamiyati ham uning ana shu tarixiy tajriba va ma'naviy qadriyatlarni zamonaviy avlod tafakkuri bilan bog'lay olish xususiyatida namoyon bo'ladi[2:35].

O'zbek folklorshunosligida dostonchilik san'atining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti, ijro usullari, badiiy xususiyatlari va baxshilar ijodiy mahoratiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq mavjud ilmiy adabiyotlarning salmoqli qismi Samarqand, Buxoro va Xorazm kabi yirik dostonchilik an'analari materiallari asosida yaratilgan bo'lib, Janubiy O'zbekiston, xususan, Surxon vohasidagi Boysun–Sherobod dostonchilik muhiti va baxshichilik maktablari nisbatan kamroq tadqiq etilgan. Holbuki, ushbu hududda doston ijrochiligi uzoq tarixiy davr davomida ustoz-shogird an'anasi asosida yashab, mahalliy aholining etnik tarixi, turmush tarzi va ma'naviy dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan. Mustaqillik yillarida milliy madaniy merosga munosabatning yangilanishi ilgari yetarlicha o'rganilmagan folklor maktablari, mahalliy ijrochilar repertuari va hududiy dostonchilik an'alarini qayta tadqiq etish uchun keng imkoniyat yaratdi. Natijada avvalgi ilmiy qarashlarni zamonaviy metodologik

yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqish, ilmiy muomalaga kam kiritilgan manbalarni aniqlash hamda baxshilar faoliyatini tarixiy-etnografik jihatdan o'rganish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Bu jihatdan Sherobod va unga tutash Boysun hududidagi dostonchilik an'anasini o'rganish janubiy voha nomoddiy madaniy merosining hududiy xususiyatlarini aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi[3:74].

Muhokama. Baxshichilik va dostonchilik tushunchalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, biri ijrochi va ijrochilik an'anasini, ikkinchisi esa mazkur san'atning asosiy epik mahsulini ifodalaydi. "Baxshi" atamasining tarixiy-semantik doirasi ham birgina doston ijrochisi ma'nosi bilan chegaralanmaydi. Turli tarixiy va lug'aviy manbalarda baxshi (baxsi, baqsi) shakllarida uchraydigan mazkur termin muayyan davr va madaniy muhitlarda ustoz, bilimdon, murabbiy, ijrochi yoki ma'naviy yetakchi kabi ma'nolarni anglatgan. Keyinchalik o'zbek folklor an'anasida ushbu atama, avvalo, xalq dostonlari va termalarini musiqiy jo'rlikda ijro etuvchi ijodkor ma'nosida barqarorlashgan. Ayniqsa, Boysun–Sherobod folklor muhitida baxshi shunchaki tayyor matnni yoddan aytuvchi ijrochi emas, balki xalq tarixiy xotirasini saqlovchi, epik syujetlarni yangi avlodga yetkazuvchi va ijro jarayonida ularni mahalliy muhitga mos ravishda qayta talqin qiluvchi ijodkor vazifasini bajargan. Shu sababli baxshichilik san'atini o'rganishda ijrochining repertuari bilan bir qatorda uning mansub dostonchilik maktabi, ustoz-shogird munosabatlari, ijro uslubi va faoliyat yuritgan etnomadaniy muhitni ham yaxlit holda tadqiq etish zarur[4:122].

"Doston" tushunchasi esa xalq og'zaki ijodida voqealar ko'lami, qahramonlar tizimi va syujet rivojining murakkabligi bilan ajralib turadigan yirik epik janrni ifodalaydi. Uning tarkibida nasriy bayon bilan she'riy parchalar, termalar, dialog va aytishuvlarning o'zaro almashinib kelishi dostonchilikning muhim badiiy belgilaridan biridir. Ayniqsa, "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkumidagi asarlar va boshqa xalq dostonlarida qahramonlik, yurtga sadoqat, oila sha'ni, muhabbat, vafo, adolat va or-nomus kabi tushunchalar epik voqealar orqali talqin qilinadi. Dostonlarning og'zaki ijro sharoitida avloddan avlodga o'tishi natijasida bir syujetning turli hududlarda o'ziga xos variantlari yuzaga kelgan. Shu jarayonda Boysun–Sherobod baxshilari ham umumxalq epik an'anasini mahalliy toponimlar, etnik xotira, sheva xususiyatlari va voha turmushiga xos tasavvurlar bilan boyitganlar. Binobarin, baxshi va doston o'rtasidagi munosabatni ijrochi va tayyor asar munosabati bilangina cheklash mumkin emas: baxshi epik merosning saqlovchisi bo'lish bilan birga, uning variantlashuvi va tarixiy davomiyligini ta'minlovchi faol ijodiy subyekt ham hisoblanadi[5:176].

Natijalar. "Doston" atamasining mazmun doirasi faqat xalq og'zaki epik ijodiga taalluqli emasligi mumtoz adabiyot namunalarida ham ko'rinadi. Xususan, Alisher Navoiy ijodida ushbu termin voqea, qissa yoki muayyan qahramon hayotiga bag'ishlangan keng ko'lamli badiiy bayon

ma'nolarida qo'llangan. "Sab'ai sayyor" asarining o'n birinchi bobi sarlavhasida uchraydigan "Shoh Bahrom dostoni" birikmasi buning yorqin misolidir. Mazkur o'rinda "doston" tushunchasi Shoh Bahrom bilan bog'liq voqealar va rivoyatlar majmuasini anglatuvchi keng semantik mazmun kasb etadi. Bu holat atamaning tarixiy taraqqiyot davomida qissa, rivoyat, afsona va yirik epik asar tushunchalari bilan o'zaro yaqin ma'nolarda ishlatilganini ko'rsatadi. Biroq yozma adabiyotdagi doston bilan baxshi tomonidan og'zaki ijro etiladigan xalq dostonini aynan bir hodisa sifatida talqin qilish to'g'ri bo'lmaydi. Ular o'rtasida epik tafakkur, qahramon obrazlari va axloqiy g'oyalarni badiiy ifodalash jihatidan mushtaraklik mavjud bo'lsa-da, yaratilish va ijro mexanizmlari bilan bir-biridan farqlanadi.

Alisher Navoiy asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik, adolat, ilm-ma'rifat, mehnat, mas'uliyat, vafo va ezgulik g'oyalari xalq dostonlaridagi axloqiy-estetik ideallar bilan muayyan mushtaraklik kasb etadi. Xalq epik tafakkurida ham bosh qahramonning kuch-qudrati uning jismoniy jasorati bilangina emas, balki el-yurt oldidagi burchiga sodiqligi, va'dasida turishi, oila va or-nomusini himoya qilishi bilan baholanadi. Yovuzlik, xiyonat va adolatsizlikning oxir-oqibat mag'lub bo'lishi haqidagi g'oya esa dostonlarning tarbiyaviy mazmunini belgilovchi asosiy tamoyillardan biridir. Shu nuqtayi nazardan yozma mumtoz dostonchilik bilan xalq baxshichilik an'analari o'rtasidagi g'oyaviy mushtaraklikni tarixiy-adabiy jarayonning o'zaro ta'sirlashgan qatlamlari sifatida tadqiq etish mumkin[6:230].

O'zbek xalqining ma'naviy-madaniy merosi ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan urf-odatlar, marosimlar, e'tiqodiy qarashlar va axloqiy qadriyatlarning yaxlit tizimini tashkil etadi. Ushbu merosda xalqning or-nomus haqidagi tasavvurlari, ajdodlar xotirasiga hurmati, Vatanga sadoqati hamda avlodlar tomonidan yaratilgan boy madaniy tajriba o'z ifodasini topgan. Millatning tarixiy xotirasi yozma manbalar bilangina cheklanmay, dostonlar, rivoyatlar, termalar, xalq qo'shiqlari va boshqa folklor namunalari ham saqlanib kelgan. Shu bois bunday manbalarni aniqlash, hududiy variantlarini qiyosiy o'rganish va ularning tarixiy-etnografik mazmunini ochib berish muhim ilmiy vazifalardan hisoblanadi. Ana shunday noyob epik meros namunalaridan biri "Alpomish" dostoni bo'lib, u o'zbek folklorshunosligida keng tadqiq etilganiga qaramay, dostonning Surxon vohasi, xususan, Boysun-Sherobod tarixiy-madaniy muhiti bilan bog'liq lokal xususiyatlari alohida yondashuv asosida yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Dostonda uchraydigan toponimlar, etnik nomlar, urug'-qabila munosabatlari, ko'chish motivlari, an'anaviy turmush manzaralari hamda baxshilar ijrosida saqlangan mahalliy talqinlarni vohaning tarixiy-etnografik materiallari bilan qiyoslash asarning hududiy qatlamlarini aniqlash imkonini beradi[7:110].

Xulosa. Har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan an'ana va qadriyatlari uning ijtimoiy hayoti, xo'jalik mashg'ulotlari, oilaviy munosabatlari hamda ma'naviy dunyoqarashi haqida muhim ma'lumotlarni o'zida saqlaydi. Bunday madaniy tajribani avloddan avlodga yetkazishda og'zaki an'ana, ayniqsa, baxshichilik va dostonchilik san'ati muhim o'rin tutgan. Turkiy xalqlar madaniy makonida keng rivojlangan epik ijrochilik an'anasi orqali xalqning tarixiy xotirasi, ajdodlar haqidagi tasavvurlari, qahramonlik ideallari va hayotiy tajribasi badiiy shaklda saqlanib kelgan. Baxshi esa bu jarayonda faqat doston ijrochisi emas, balki o'tmish bilan bugungi avlodni bog'lovchi madaniy xotira tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Boysun–Sherobod baxshichilik muhitida ustoz-shogird an'anasi orqali yetkazilgan doston, terma va aytimlar voha aholisining turmush tarzi, etnik xotirasi va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan[8:77]. Shu jihatdan “Alpomish” va boshqa epik asarlarning mahalliy ijro variantlarini o'rganish nafaqat folklorshunoslik, balki etnologiya va tarix uchun ham muhim bo'lib, ular orqali Surxon vohasi aholisining o'tmishdagi ijtimoiy munosabatlari, an'anaviy dunyoqarashi hamda nomoddiy madaniy merosining tarixiy davomiyligini yanada chuqurroq yoritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони. Фозил Йўлдош ўғли варианты / Нашрга тайёрловчилар: Х. Зариф, Т. Мирзаев. – Тошкент: Шарқ, 1998.
2. G.Axmedova. “O'zbekistonning janubiy hududlarida baxshichilik an'alarining etnomadaniy jarayonlarga ta'siri (XIX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari)” tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori disseratsiyasi. Termiz 2022.123-124 betlar.
3. Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 2008.
4. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент: Фан, 1979.
5. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986.
6. Турсунов С., Қобилов Э., Пардаев Т., Муртазов Б. Сурхондарё тарих кўзгусида. – Тошкент: Шарқ, 2001.
7. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди / К. Имомов, Т. Мирзаев, Б. Саримсоқов, О. Сафаров. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
8. Ўзбек фольклори очерклари. Уч жилдлик. 1-жилд / Масъул муҳаррир Т. Мирзаев. – Тошкент: Фан, 1988.